

FUQAROLIK JAMIYATI SHAROITIDA YOSHLARNING VATANPARVARLIK TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Qodirov Jahongir Neymat o‘g‘li

*Kitob tumani Maktabgacha va maktab
ta’limi bo‘limi Inson resurslari bilan
ishlash bo‘yicha bosh-metodisti*

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va modernizatsiya jarayonlarida fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, mustaqillikka sadoqat tuyg‘ularini shakllantirishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, ajdodlardan meros bo‘lib qolgan an‘ana va urf-odatlardan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, tarbiya jarayoni yoshlarni ma’naviy jihatdan kamol toptirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Talabalarni haqiqiy fuqarolik ruhida tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini mustahkamlash va fidoyi, Vatan ravnaqi yo‘lida mas’uliyatni his qiladigan shaxs sifatida shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Yosh avlod qalbida vatanparvarlik hissi va e’tiqodi chuqur qaror topmas ekan, ularning axloqiy fazilatlarini, ijobiy xulq-atvori va ma’naviy ko‘nikmalarini barqaror shakllantirish mushkul bo‘ladi.

Shu bilan birga, sohadagi mavjud holat va amalga oshirilgan chora-tadbirlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli bo‘lgan muhim masalalar hali to‘liq hal etilmagan. Xususan, uyushmagan yoshlarning jamiyatda munosib o‘rin egallashi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunar egallashga yo‘naltirish, bandligini ta’minlash hamda ularning tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar kutilgan darajada samarali tashkil etilmagan. Ayniqsa, chekka hududlarda istiqomat qiluvchi yoshlarning iqtidor va iste’dodini ro‘yobga chiqarish, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularni zararli illatlar va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tizimli yondashuv yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmagan. Natijada, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati mamlakat yoshlari birligini ta’minlaydigan va ularni yuksak maqsadlar sari safarbar etadigan ommaviy kuchga to‘liq aylana olmaganini hayotning o‘zi tasdiqlamoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev 2017-yil 30-iyun kuni “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV Qurultoyida so‘zlagan nutqida: “Yosh avlod tarbiyasi barcha davrlarda muhim va dolzarb masala bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”, — deb ta’kidlagan edi. Shu bilan birga, davlat rahbari O‘zbekiston Respublikasi “Yoshlar Ittifoqi” tashkilotini qayta tashkil etish orqali yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratdi. Uning “Yoshlar — bizning

kelajagimiz” degan soʻzlari bu yoʻnalishga berilayotgan yuksak baho va strategik ahamiyatni yaqqol ifodalaydi.

2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish hamda fuqarolik jamiyatini mustahkamlash yoʻlidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirishga qaratilgan yangi va muhim vazifalarni belgilab berdi. Ushbu strategiya doirasida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, ularni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish zarurligi taʼkidlandi. Shu maqsadda davlat siyosatini shakllantirish jarayonida keng jamoatchilik, ayniqsa yoshlar vakillarining fikr, taklif va mulohazalarini inobatga olishga alohida eʼtibor qaratildi.

2017-yil 30-iyun kuni boʻlib oʻtgan Oʻzbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV Qurultoyi qaroriga muvofiq, tashkilot negizida Oʻzbekiston “Yoshlar Ittifoqi” tuzilganligi maʼlumot uchun qabul qilindi.

Oʻzbekiston “Yoshlar Ittifoqi” tashkil topgan sana — 2017-yil 30-iyun mamlakat miqyosida “Yoshlar kuni” deb eʼlon qilindi.

Oʻzbekiston Yoshlar Ittifoqi faoliyatining ustuvor yoʻnalishlari sifatida quyidagi asosiy yoʻnalishlar belgilab olindi:

Oʻzbekiston “Yoshlar Ittifoqi” faoliyatining ustuvor yoʻnalishlari quyidagicha belgilangan:

Birinchidan, tashkilotni Respublika miqyosida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan samarali hamkorlik qiluvchi, “Yoshlar — kelajak bunyodkori” shiori ostida professional faoliyat yurituvchi tuzilma sifatida shakllantirish nazarda tutiladi.

Ikkinchidan, yoshlarning huquq, erkinlik va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik gʻoyalariga eʼtiqod, Vatanga muhabbat, milliy oʻzlikni anglash hamda fidoyilik tuygʻusini mustahkamlashga eʼtibor qaratiladi. Shu bilan birga, ularni turli mafkuraviy tahdidlardan, yot gʻoyalar taʼsiridan himoya qilish muhim vazifa sifatida belgilanadi.

Uchinchidan, demokratik davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yoʻlida yoshlarning faolligini oshirish, ularni yuksak maʼnaviyatli, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashga ega, tashabbuskor, fidoyi hamda mamlakat istiqboli uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir shaxslar sifatida tarbiyalashga alohida eʼtibor beriladi.

To‘rtinchidan, yoshlarning zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashi, bandligi va tadbirkorlik faoliyatiga jalb etilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ularning tashabbuslarini rag‘batlantirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish maqsad qilib olinadi.

Beshinchidan, yoshlarning ilmiy va badiiy adabiyotlar, shu jumladan elektron nashrlarga qiziqishini oshirish, ularning huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya madaniyatini yuksaltirish orqali diniy ekstremizm, terrorizm, “ommaviy madaniyat” kabi zararli g‘oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish ko‘zda tutiladi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish murakkab va ko‘p bosqichli jarayon bo‘lib, u izchil pedagogik yondashuvni talab etadi. Avvalo, o‘quvchilarga vatanparvarlikning mohiyati, mazmuni va me‘yoriy asoslari haqida nazariy bilimlar beriladi. Shu jarayonda fuqarolik odobi va madaniyati to‘g‘risida tushunchalar shakllantirilib, ijobiy hatti-harakatlar namunalari keltiriladi hamda amaliy faoliyatlar tashkil etiladi. Aynan shu tizimli yondashuv asosida yoshlarning tafakkurida vatanparvarlik tushunchasi mustahkamlanadi, fuqarolik ongining muhim ko‘rsatkichlari sifatida xulqiy odatlar va ijtimoiy mas‘uliyat shakllanadi.

Bu jarayon xalqning boy milliy, ma‘naviy-tarixiy an‘analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy hamda pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishni nazarda tutadi. Vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifasi esa shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy jihatdan barkamol bo‘lib voyaga yetishini, uning tabiiy qobiliyatlari va salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019. – 48 b.
2. Yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus. // Xalq so‘zi 2019 yil 19 mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yoshlar – kelajagimiz» davlat dasturi to‘g‘risida 2018 yil 27 iyundagi Farmoni. // Xalq so‘zi 2018 yil 28 iyun.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. // Xalq so‘zi 2017-yil 8-fevral.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T., Ma‘naviyat, 2008, -176 b.
6. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar – ta‘lim samaradorligi omili; monografiya / T.: “Yoshlar nashriyot uyi”, 2020.